

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2026- yil 1- yanvar holatiga 3 717,0 ming kishini tashkil etib, 2025- yil boshidan 77,7 ming kishiga ya'ni 2,1 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 583,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 2 133,2 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2025- yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **77,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **99,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **15,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **28,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **3,3 ming nafarni** tashkil etdi

2025- yilning
yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 639 318 kishi
(2025- yil 1- yanvar holatiga)



99,6 ming
bola

Tug'ilganlar soni



15,6 ming
kishi

O'lganlar soni



12,0 ming
kishi

Ko'chib kelganlar
soni



18,4 ming
kishi

Ko'chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
3 716 949 kishi
(2026- yilning 1- yanvar holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2026- yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 717,0	1 583,8	2 133,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	306,3	306,3	-
Shahrisabz sh.	152,7	152,7	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	232,0	54,5	177,5
Dehqonobod	166,2	31,6	134,6
Qamashi	306,9	72,5	234,4
Qarshi	286,5	103,5	183,0
Koson	326,7	171,2	155,5
Kitob	293,4	108,3	185,1
Mirishkor	134,9	50,5	84,4
Muborak	97,0	76,9	20,1
Nishon	174,6	103,4	71,2
Kasbi	222,3	85,9	136,4
Ko'kdala	200,0	34,0	166,0
Chiroqchi	280,9	79,6	201,3
Shahrisabz	242,8	57,9	184,9
Yakkabog'	293,8	95,0	198,8

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni
(1- yanvar holatiga ming kishi)

	2024- y.	2025- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	3 639,3	3 717,0	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	300,8	306,3	101,8
Shahrisabz sh.	150,1	152,7	101,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	227,0	232,0	102,2
Dehqonobod	162,7	166,2	102,2
Qamashi	299,8	306,9	102,4
Qarshi	279,5	286,5	102,5
Koson	319,4	326,7	102,3
Kitob	287,7	293,4	102,0
Mirishkor	132,3	134,9	102,0
Muborak	95,2	97,0	101,9
Nishon	170,6	174,6	102,3
Kasbi	217,8	222,3	102,1
Ko'kdala	194,4	200,0	102,9
Chiroqchi	274,5	280,9	102,3
Shahrisabz	239,2	242,8	101,5
Yakkabog'	288,3	293,8	101,9


Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.¹⁾</i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.²⁾</i>
Tug'ilganlar	100 909	99 656	-1 253	28,0	27,1
O'lganlar	15 514	15 637	123	4,3	4,3
Tabiiy o'sish	85 395	84 019	-1 376	23,7	22,8
Nikohlar	29 256	28 915	-341	8,1	7,9
Ajralishlar	2 989	3 323	334	0,8	0,9

Tug'ilish darajasi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 99 656 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (100 909 kishi) nisbatan 1 253 kishiga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 27,1 promilleni tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (28,0 promille) nisbatan 0,9 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi G'uzor tumanida 24,7 dan 25,0 promillega va Dehqonobod tumanida 23,8 dan 24,4 promillega ko'payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma'lumot

²⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 99,6 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 27,1 promilleni tashkil etdi hamda 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega kamayganligi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 28,0 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti (2025- yilning yanvar-dekabr oylarida)



O‘lim darajasi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 15 637 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (15 514 kishi) nisbatan 123 kishiga yoki 100,7 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 promille).

O'lim soni va koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Nishon tumanda (3,8 dan 4,1 promillega), Muborak tumanda (4,2 dan 4,5 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 28,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,9 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2025- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2025- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2025- yilning yanvar-dekabr oylari FHDYO organlarida 28 915 ta nikohlar va 3 323 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,9 ta nikoh (2024- yilning tegishli davrida 8,1 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2024- yilning tegishli davrida 0,8 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>

Qashqadaryo viloyati	29 256	28 915	2 989	3 323
-----------------------------	---------------	---------------	--------------	--------------

shaharlar:

Qarshi sh.	2 130	2 787	359	417
------------	-------	-------	-----	-----

Shahrisabz sh.	982	897	206	211
----------------	-----	-----	-----	-----

tumanlar:

G'uzor	1 901	1 911	178	168
--------	-------	-------	-----	-----

Dehqonobod	1 416	1 264	117	116
------------	-------	-------	-----	-----

Qamashi	2 516	2 411	242	226
---------	-------	-------	-----	-----

Qarshi	2 268	1 896	210	264
--------	-------	-------	-----	-----

Koson	2 683	2 618	176	257
-------	-------	-------	-----	-----

Kitob	2 144	2 116	287	266
-------	-------	-------	-----	-----

Mirishkor	1 097	1 055	67	109
-----------	-------	-------	----	-----

Muborak	774	755	83	90
---------	-----	-----	----	----

Nishon	1 444	1 319	132	150
--------	-------	-------	-----	-----

Kasbi	1 861	1 805	139	143
-------	-------	-------	-----	-----

Ko'kdala	1 766	1 824	79	129
----------	-------	-------	----	-----

Chiroqchi	2 315	2 314	241	280
-----------	-------	-------	-----	-----

Shahrisabz	1 782	1 843	222	244
------------	-------	-------	-----	-----

Yakkabog'	2 177	2 100	251	253
-----------	-------	-------	-----	-----

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11 973 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 18 361 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2024- yilning yanvar-dekabr oylarida	2025- yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	11 109	11 973
	Ko'chib ketganlar	17 819	18 361
	Migratsiya saldosı	-6 710	-6 388

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 6 388 kishiga (2024- yilning shu davrida minus 6 710 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Yakkabog' (minus 1 029), Shahrisabz (minus 795) va Chiroqchi (minus 779) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-dekabr oylarida

Soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot




Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2026- yil 1- yanvar holatiga 306,3 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 5,5 ming kishiga yoki 1,8 % ga oʻsgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,2 ming bola tugʻilganligi qayd etilgan boʻlib, mos ravishda tugʻilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 23,7 promilleni tashkil etdi (2024- yilning mos davrida 24,6 promille boʻlgan).

FHDYO organlarida 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 787 ta nikoh va 417 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 9,2 promilleni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan koʻpaygan. (2024- yilning mos davrida 7,1 promille boʻlgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,4 promilleni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan koʻpaygan. 2024- yilning mos davrida 1,2 promille boʻlgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-dekabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

